



TALABALARNI ESTETIK TARBIYALASHDA MA'NAVIY-MA'RIFIY VA MUSIQIY TADBIRLARNING O'RNI

Raximov Nurillo Narzullaevich

*Guliston davlat pedagogika instituti,
"San'atshunoslik" kafedrasi v.b. dotsenti*

Annotatsiya: *ushbu maqolada musiqaning inson ma'naviy-axloqiy kamolotidagi o'rni va uning estetik tarbiyadagi ahamiyati yoritilgan. Muallif Aristotel va Forobiyning qarashlariga tayangan holda, musiqaning shaxs ruhiyatiga ijobiy ta'sirini tahlil qiladi. Shuningdek, Guliston davlat pedagogika institutida talabalarning estetik tarbiyasini shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy va musiqiy tadbirlarning tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi. Maqolada bunday tadbirlar talabalarning mustaqil faoliyati, ijodkorligi va badiiy didini rivojlantirishdagi samarali vosita sifatida baholanadi.*

Kalit so'zlar: *musiqa madaniyati, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, estetik tarbiya, talabalar faoliyati, musiqiy tadbirlar, forobiy, aristotel, ma'naviy kamolot, san'at ta'siri, pedagogik jarayon.*

THE ROLE OF SPIRITUAL, EDUCATIONAL, AND MUSICAL EVENTS IN THE AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS

Rakhimov Nurillo Narzullaevich

*Acting Associate Professor, Department of Art Studies,
Gulistan State Pedagogical Institute*

Abstract: *This article explores the role of music in the spiritual and moral development of an individual and its significance in aesthetic education. Drawing on the philosophical views of Aristotle and Al-Farabi, the author analyzes the positive influence of music on human psychology and spiritual growth. The study also discusses the importance of spiritual-educational and musical activities in shaping the aesthetic culture of students at the Gulistan State Pedagogical Institute. These activities are evaluated as effective means for developing students' independence, creativity, and artistic taste.*

Keywords: *music culture, spiritual and educational upbringing, aesthetic education, student activities, musical events, Al-Farabi, Aristotle, spiritual development, artistic influence, pedagogical process.*





РОЛЬ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ И МУЗЫКАЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В ЭСТЕТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ СТУДЕНТОВ

Рахимов Нурилло Нарзуллаевич

И.о. доцента кафедры искусствоведения,

Гулистанский государственный педагогический институт

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль музыки в духовно-нравственном развитии личности и её значение в эстетическом воспитании. Опираясь на философские взгляды Аристотеля и Аль-Фараби, автор анализирует положительное влияние музыки на психику и духовное состояние человека. Особое внимание уделено роли духовно-просветительских и музыкальных мероприятий в формировании эстетического мировоззрения студентов Гулистанского государственного педагогического института. Эти мероприятия рассматриваются как эффективное средство развития самостоятельности, творческих способностей и художественного вкуса студентов.*

Ключевые слова: *музыкальная культура, духовно-просветительское воспитание, эстетическое воспитание, студенческая деятельность, музыкальные мероприятия, Аль-Фараби, Аристотель, духовное развитие, влияние искусства, педагогический процесс.*

Inson ma'naviy taraqqiyotini musiqiy madaniyatsiz tasavvur qila olmaydi. Insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan barcha allomalar ham musiqa san'atining boy imkoniyatlardan to'la foydalanib, san'at orqali ma'naviy kamolot cho'qqilarini zabt etishga muvaffaq bo'lganlar. Ajdodlarimiz musiqa san'atining inson shaxsini kamol toptirishda oliyjanob insoniy fazilatlarni tarbiyalashdagi ahamiyatiga yuksak baho berganlar. Qadimgi dunyo donishmandi Aristotel ham o'zining «Siyosat» nomli asarida tarbiya masalasiga falsafiy nuqtai nazardan yondashib, bunda musiqaning rolini alohida ta'kidlab o'tadi. «Musiqqa qalbgga ma'naviy ruhiy ta'sir o'tkazishga qodir. Modomiki musiqa shundayin xususiyatga ega ekan, uni yoshlar tarbiyasiga oid predmetlar safiga kiritmoq lozim».

Shu asarning yana bir joyida Aristotel musiqa tarbiya vositasimi, yo ermak, yoki vaqt o'tkazish usulimi degan savol qo'yib, shunday javob beradi: "To'la asos bilan aytish mumkinki, musiqa ularning hammasiga tegishli".

Gap shundaki, ermak va vaqt o'tkazish jarayonida odam (tomoshabin) ko'zga tashlanmagan holda qaysi bir darajada tarbiyalanadi. Ayniqsa yoshlarning fikrlash tarzi o'sib, vaqtichoqliklar paytida muayyan yo'nalishda shakllanib boradi.

Sharq Aristoteli, muallimi soniy (ikkinchi muallim) deb nom olgan ulug' bobomiz Abu Nasr Farobiy ilimlarning kelib chiqishi haqidagi "Ixsoi-ulush" asarida musiqa

ilmini keltirib chiqargan sabablar borasida to'xtalib, jumladan shunday deydi. "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi. Mukammallikka etmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa ruh ham so'nadi, tana to'siqqa uchrasa ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi, ruh esa o'z kuchlarining tartibga solinish va subatantsiyasiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi".

Guliston davlat pedagogika institutida ta'lim olayotgan talabalarining estetik tarbiyasini muvoffaqiyatli yo'lga qo'yishda ma'naviy-ma'rifiy va musiqiy tadbirlar ham muhim o'rin tutadi. Talabalar hayoti va faoliyatini faqatgina darsda emas, balki darsdan tashqari paytda ham tashkil qilish ularning estetik tarbiyasini yanada yuqori darajada ta'minlashni ko'zda tutadi. Shuning uchun ham, talabalar estetik tarbiyasining shakllanishida ma'naviy-ma'rifiy va musiqiy tadbirlarning tashkil qilinishi katta samara beradi.

Talabalarining mustaqil faoliyatlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Eng ko'p tarqalgan va hammabop bo'lgan – ma'naviy-ma'rifiy va musiqiy tadbirlar talabalar uchun mustaqil amaliy bilim, ko'nikma va malaka shakllantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. U bo'lajak o'qituvchilarning estetik tarbiya mohiyatini tushunganlik darajalarini, tarbiyaviy-tashkiliy imkoniyatlar miqdorini, malakalarning shakllanganlik bosqichlarini, olgan bilimlarining mustahkam va tushunarligini yaqqol ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida va mustaqil faoliyatda tayanch bilim zahirasini to'plash zarurligi bilan ma'naviy-ma'rifiy va musiqiy tadbirlarning vazifalari bir-biriga uyg'unlashib ketadi. Shunday ekan ma'naviy-ma'rifiy va musiqiy tadbirlar ham o'quv ishlari sanaladi.

Ma'naviy-ma'rifiy va musiqiy tadbirlarga tayyorgarlik jarayoniga rahbarlik qilish alohida soha bo'lib: maxsus adabiyotlarni o'rganishni, musiqiy dasturlarni bilishni talab qiladi. Mashg'ulotlarga tayyorgarlik uni o'tkazish turi va shakli har xil bo'lishi mumkin. Bu, talabalarining mustaqillik darajasiga, faolligiga, bilim va ko'nikmalar darajasiga bog'liq bo'ladi. Uning muvoffaqiyati tadbirlarning samaradorligiga, mustaqil faoliyatni tashkil qilishda saviyasidan qat'iy nazar barcha talabalarni qamrab olishda ko'rinadi. Talabalarining ma'naviy-ma'rifiy va musiqiy tadbirlarda qatnashishi o'zini namoyon qilishdagi katta imkoniyat –deb, qarash kerak.

Talabalarining estetik ehtiyojlari va badiiy qobiliyatlarini shakllantirishda badiiy havaskorlik to'garagi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu to'garakning qatnashchilari asosan "Musika ta'limi" ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan yigit va qizlardan iborat bo'lib, undan tashqari unga institut talabalaridan musiqa san'atiga qiziqqan xonanda, sozanda va raqqosalar ishtrok etib keladilar. To'garak repertuarining asosiy mazmunini milliy musiqa san'atining turli-tuman janrlari tashkil qiladi. Talabalar



to'garagi repertuaridan joy olgan xalq terma, lapar, qo'shiq, yalla, ashula, estrada, raqs va maqomlardan namunalarni jon-dildan ijro etadilar.

Bundan tashqari institut ta'lim yo'nalishlari o'rtasida har yili turli nomlardagi musiqiy ko'rik-tanlovlar o'tkazilib boriladi. o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovlarning ham asosiy mazmunini milliy musiqa san'atimizning turli-tuman janrlari tashkil qilishi quvonarli hol bo'lmoqda. Ko'rik-tanlovlarda turli ta'lim yo'nalishlari talabalari muvaffaqiyatli ishtrok etib, faxrli o'rinlarni egallab keladilar.

Ma'naviy-ma'rifiy va musiqiy tadbirlarni tashkil qilish orqali taniqli san'at namoyondalari, yozuvchi shoirlar bilan o'tkazilayotgan uchrashuvlar ham talabalarni estetik tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Institutda ko'p yillardan buyon "Yoshlar ittifoqi" va kasaba uyushmasi hamkorligida tashkil qilingan qiziqarli musiqiy uchrashuvlarda respublika hamda Sirdaryo viloyat musiqali drama teatrining artistlari, viloyat namunali maqomchilar ansambli o'z san'atlari bilan talabalarda o'zbek milliy musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini yanada oshirmoqdalar. Shoirlar va yosh kalamkashlar bilan o'tkazilayotgan ijodiy kechalar talabalarda katta taassurot qoldirmoqda. Uchrashuvlarda ular yozgan she'rlariga bastalangan qo'shiqlarni badiiy havaskorlik to'garagi qatnashchilari katta mamnuniyat bilan ijro etmoqdalar.

Bundan tashqari "Musiqa ta'limi" va "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishlari professor-o'qituvchilari va talabalarining yillik "Hisobot kontsert" lari va tasviriy san'at ijodiy ko'rgazmalarini o'tkazish ham an'anaga aylanib qolmoqda. Bu tadbirga institut professor-o'qituvchilari va talabalarining, kafedraning hamkor ta'lim tashkilotlari hamda musiqa va san'at maktablarining o'qituvchi va o'quvchilari, turli xil san'at muassasalari xodimlari va ota-onalarning tashriflari uning nufuzini yildan-yilga oshirib bormoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy va musiqiy tadbirlarga qatnashuvchi talabalarni uzluksiz ravishda kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, ularda musiqiy did, musiqa san'atiga intilish sezilarli darajada o'smoqda, musiqiy qiziqishlari kengayib bormoqda, badiiy jihatdan yuqori bo'lgan musiqiy san'at bilan muloqotda bo'lishga xohish va bunday asarlarni asosli baholashda namoyon bo'luvchi musiqaga ijobiy munosabat rivojlanib borayotganligi ma'lum bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy-ma'rifiy va musiqiy tadbirlar bo'yicha qilingan ishlar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: talabalarining estetik tarbiyasida ma'naviy-ma'rifiy va musiqiy tadbirlarning ahamiyati juda kattadir. Chunki, ular talabalarda o'z qobiliyatlarini mustaqil namoyon qilish imkoniyatini, musiqiy qobiliyatini rivojlantirishini, amaliy bilim va ko'nikmalar bilan qurollanishini, ma'suliyatni sezishni, sinfdan tashqari musiqiy-tarbiyaviy ishlarni mustaqil o'tkazishni, tashkilotchilar mahoratini, nazariya bilan amaliyotni bog'lay olishni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.





ADABIYOTLAR\REFERENCES

1. Ibrohimova R. Ta'lim muassasalarida o'quvchi yoshlarni milliy istiqloq g'oyasi asosida tarbiyalashda xalq an'analaridan foydalagish. Xalq ta'dimi, 2005, 1-son. 47-49.
2. Mahkamov U. o'quvchlarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. T., Fan. 1995 y. 199 b.
3. Raximov N. BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 3. – С. 530-538.
4. Nurillo R. GLOBALLASHUV DAVRIDA MUSIQA SAN'ATI MIGRATSIYASI JARAYONLARINING MADANIYATLAR O'ZGARISHIDAGI TA'SIRI //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 92-94.
5. Narzullayevich Y. S. TALABALARNING AN'ANAVIY XONANDALIK MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISHDA ASOSIY IJROCHILIK KO'NIKMALARI //PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE. – 2024. – Т. 2. – №. 17. – С. 32-35.
6. Джумабаев Н. . (2023). Sharq mutafakkirlari merosidan foydalanishning pedagogik sifatleri. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), 233–236. <https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp233-236>.
7. РЗ Хайров - International Journal of Education, Social Science & ..., 2023. Педагогические условия информационно-коммуникационных технологий в совершенствовании профессионально-методической подготовки будущих учителей. <https://scholar.google.com/scholar?cluster=7155828144032195359&hl=en&oi=scholar>.
8. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION. (2025). International Journal of Artificial Intelligence, 5(05), 1489-1494. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/4677>.
9. Berikbaev, A. (2021, April). TEACHING PROFESSION AND SKILLS WAYS TO BE A TEACHER. In Archive of Conferences (Vol. 23, No. 1, pp. 142-144).
10. IMPROVING THE MECHANISMS FOR ORGANIZING EXTRACURRICULAR MUSIC CLUBS. (2025). Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy, 1(3), 61-69. <https://usajournals.org/index.php/6/article/view/388>.

